

Tijorat Banklarida Menejment Amaliyotini Jahon Tajribalari Orqali Rivojlantirish Yo'llari

*Jamolxonova Muxlisa Nasrullo qizi*¹

Annotatsiya: Maqola xalqaro tajribaga e'tibor qaratgan holda tijorat banklarini boshqarish sohasidagi zamonaviy tendentsiyalarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada turli mamlakatlarda bank boshqaruvi samaradorligini oshirish, moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash va global iqtisodiy muammolar sharoitida bank institutlarining barqarorligini oshirish uchun qo'llaniladigan asosiy tamoyillar va metodologiyalar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: bank, boshqaruv, risk, likvidlilik, risk-menejment, kapital, foyda.

KIRISH. Moliya bozorlarining globallashuvi va tez o'zgarib borayotgan iqtisodiy muhit sharoitida banklar oldiga boshqaruvga yanada samaraliroq va moslashuvchan yondashuvlarni joriy etishni taqozo etuvchi yangi vazifalar turibdi. Zamonaviy tijorat banklari kuchli raqobat muhitida, muhim me'yoriy-huquqiy o'zgarishlar va innovatsion texnologik yechimlar sharoitida faoliyat yuritadi, bu esa ulardan boshqaruv usullari va strategik rejalashtirishni doimiy ravishda takomillashtirishni taqozo etadi. Banklarning barqarorligi va raqobatbardoshligiga erishishning muhim omili ilg'or jahon tajribasidan foydalanish va turli mamlakatlarda sinovdan o'tgan muvaffaqiyatli boshqaruv modellarini moslashtirish hisoblanadi. Hozirgi kunda bank tizimida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida shu kunga qadar bank tizimida ikki pog'onali bank tizimi shakllantirildi va banklarning amalga oshirayotgan operatsiyalari xalqaro darajaga ko'tarilgan. Ushbu sohaga Yurtboshimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonini keltirishimiz mumkin.[1]

So'nggi o'n yilliklarda jahon bank tizimi sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Dunyoning yetakchi banklari korporativ boshqaruv, raqamlashtirish, jarayonlarni avtomatlashtirish va risklarni boshqarish sohasida innovatsiyalarni faol joriy etmoqda. Bu o'zgarishlar tijorat banklarini boshqarishni tashkil etish bilan bir qatorda ularning inqirozli vaziyatlarga samarali munosabatda bo'lish va tashqi muhit o'zgarishlariga tez moslashish qobiliyatiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada turli mamlakatlardagi banklar duch kelayotgan muvaffaqiyat va yutuqlar hamda muammolar ko'rib chiqilib, ushbu bilim va tajribani mahalliy bank sektorida qo'llash zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, ilg'or jahon tajribasini muvaffaqiyatli joriy etish faqat milliy xususiyatlar va mahalliy iqtisodiy va moliyaviy vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Tijorat banklarida boshqaruv ularning barqarorligi, samaradorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy elementi hisoblanadi. Globallashuv, raqamlashtirish va qonunchilik va iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar sharoitida banklar boshqaruvga innovatsion yondashuvlarni moslashtirish va joriy etishni talab qiluvchi qator muammolarga duch kelmoqda. Samarali bilimlarni boshqarish tashkilotga ichki jarayonlar, mijozlarga xizmat ko'rsatish va mahsulotlarni yaxshilash hamda xodimlar uchun yaxshi ish muhitini yaratish orqali raqobatdosh ustunlikka erishishga yordam beradi. Aynan ushbu soha bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ulardan biri Joash Cheruyot Rononing ta'kidlashicha, bilimlarni boshqarish – bu moliya sanoatida ajralmas, chunki banklar bilim asosida raqobatlashadilar, chunki ularning ishlarining aksariyati bilimga asoslangan. Mijozlarning murakkabligiga javoban mahsulot va xizmatlar

¹ Andijon mashinasozlik instituti, assistant



innovatsiyalari darajasi tobora ortib bormoqda. Bundan tashqari, raqobat bosimi tufayli ishchi kuchining soni kamayib borayotgan bo'lsa-da, xodimlarning harakatchanligi va erta nafaqaga chiqish ortib bormoqda. Tajriba orttirish va bilim olish uchun ajratiladigan vaqt ham qisqardi. Ushbu omillar natijasida qimmatli biznes bilimlari yo'qoladi. Globallashuv kuchlari ham bor ishbilarmonlik muhitining murakkabligi va dinamikligini oshirdi va dunyoning aksariyat iqtisodiyotlarini liberallashtirish; moliyaviy bozorlar katta va kichik o'yinchilar uchun teng darajada ochiq.[2]


Smelov operatsion riskga quyidagicha ta'rif bergan “ operatsion risk, bank sektoriga katta zarar yetkazadigan, axborot ba'zasi va tahlil qilishda tizimli yondashuv to'liq ishlab chiqilmagan riskning o'ziga xos turi hisoblanadi”. Uning fikricha, banklar duch keladigan xavflar orasida operatsion risklar o'ziga xos xususiyatlari, tahlilga tizimli yondashuvning yo'qligi va batafsilroq o'rganishni talab qiluvchi identifikatsiya mezonlarining yo'qligi sababli alohida guruhni tashkil etadi.[3] Akbarov o'z ilmiy maqolasida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim ko'rsatkich bu – likvidlilikdir deb ta'kidlab o'tgan. Pandemiya davrida va iqtisodiyotda harakatsizlik yuzaga kelishi tijorat banklarining likvidliligini ta'minlash va uni saqlab qolish bank operatsiyalarining riskliligini yanada oshiradi, bu esa inqirozga olib kelishi mumkin.[4] Aynan ushbu olimlardan biri Abdullayeva o'z ilmiy ishlarida bank risklariga quyidagicha ta'rif bergan, “Bank amaliyotida risk har doim ham kutilmagan hodisa emas”. Bank faoliyatining barcha turi risk bilan bog'liq. Bank shu faoliyat turi yoki operatsiya riskli ekanligini bilib turib, ushbu operatsiyani amalga oshirishga qaror qabul qiladi yoki amalga oshiradi va u barcha hollarda shu operatsiya natijasida yuqori daromad olishni rejalashtiradi.[5]

Ushbu adabiyotlar sharhi tijorat banklarida risklarni boshqarish bo'yicha mavjud tadqiqotlarni har tomonlama ko'rib chiqish, asosiy tushunchalar, metodologiyalar va tavakkalchiliklarni boshqarishda banklar duch keladigan muammolarni ko'rsatishga qaratilgan.

METODOLOGIYA. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tadqiqotchilar odatda ikki xil metodologiyadan foyalanadilar. Miqdoriy hamda sifat metodologiyasidan. Miqdoriy metodologiya - bu miqdoriy ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va sharhlash uchun statistik va matematik usullardan foydalanishga asoslangan tadqiqotga yondashuv. Sifat metodologiyasi – ijtimoiy hodisalarni tushunish, ularning ma'nosini izohlash va ular sodir bo'lgan kontekstni o'rganishga qaratilgan tadqiqotga yondashuv. Ushbu maqola davomida banklarda risklarni boshqarish amaliyotining ahamiyati va ularning rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim ko'rsatkichlarni tahlil qilish bilan birga mavzuga doir adabiyotlarga tayangan holda mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv usullaridan keng foydalanildi.

TAXLIL VA NATIJALAR. Tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarishning o'rni yuqori hisoblanadi. Bunga sabab ushbu amaliyot bankning moliyaviy barqarorligini, uning mijozlari hamda aksiyadorlari manfaatlarini himoya qilish bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Risklarni samarali boshqarish orqali tijorat banklarining faoliyati va moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavflarni aniqlash, ularni baholash hamda xavflarni kamaytirish va tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini saqlashga erishish mumkin. Shuni ham inobatga olishimiz kerakki, kapital yetarliligi ko'rsatkichi tijorat banklarining risklarni boshqarish amaliyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kapitalning yetarlilik koeffitsiyentining oshishi risk-menejment amaliyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki, kapitalning yuqori darajasi bankning tavakkal qilish hamda biznes faoliyatini faol darajada olib borish siyosatining motivatsiyasi pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababdan banklar risklarni minimallashtirish choralari bilan birga faol operatsiyalarni bajarish imkoniyatini beruvchi hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydigan kapitalning maqbul darajasiga intilishlari zarur. Kapitalning muayyan davrdagi o'sish hamda kamayish darajalarini (1- rasm) da aniqlash tahlil qilib chiqishimiz mumkin.





1-rasm. Kapital yetarlilik ko'rsatkichining yillar kesimida o'zgarish dinamikasi.(2017-2022 – yillar)

Manba: Statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ushbu ko'rsatkich tijorat banklari kapitalining uning risk darajasida o'lchangan aktivlariga nisbatini o'lchaydigan ko'rsatkich. U tijorat banklari moliyaviy barqarorligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Uning 2017-2022 – yillardagi o'zgarish dinamikasiga e'tibor bersak, 2017-yildan boshlab bir maromda oshib hamda kamayib borgan. Lekin 2020-yilga kelib kapital yetarlilik ko'rsatkichi o'tgan yilgiga nisbatan keskin oshib ketgan. Ushbu ko'rsatkich 2019-yilda 15.6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 23.5 % ni tashkil etgan. Bu esa o'tgan davrga nisbatan 7.9 % ga oshganini bildiradi. Kapital yetarlilik ko'rsatkichi (CAR)ning oshishiga bir qancha omillar sabab bo'lishi mumkin. Misol uchun 2020-yilda sodir bo'lgan Covid -19 pandemiyasining iqtisodiy va moliyaviy oqibatlari sababli bank tizimi ham turli xavflarga uchradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR: Jahon tajribasi asosida tijorat banklarida boshqaruv amaliyotini rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy manzarada bank faoliyati samaradorligi, raqobatbardoshligi va barqarorligini oshirishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida muvaffaqiyatli boshqaruv innovatsion yondashuvlar, texnologik yechimlar va korporativ boshqaruv standartlariga qat'iy rioya qilish asosida keng qamrovli va moslashuvchan strategiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Globallashuv va texnologik o'zgarishlar sharoitida tijorat banklari boshqaruv amaliyotini takomillashtirishda xalqaro tajribadan faol foydalanishlari kerak. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, tavakkalchiliklarni samarali boshqarish, korporativ boshqaruv standartlariga rioya qilish va mijozlarga e'tibor qaratish – bularning barchasi banklar barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Faqat ilg'or jahon amaliyotlarini moslashtira oladigan va ularni o'z strategiyasiga integratsiya qila oladigan institutlarga tez o'zgaruvchan moliya bozorida muvaffaqiyat qozona oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. PF-5992 (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5992 - sonli Farmoni, "2020-2025– yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" 2020-yil 12-may. O'RQ -580 (2019) O'zbekiston Respublikasining O'RQ-580 – sonli qarori, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" 2019-yil 5-noyabr;
2. Joash Cheruiyot Rono- "KNOWLEDGE MANAGEMENT PRACTICES BY COMMERCIAL BANKS IN KENYA", kitob.2011;



3. Smelov.P.A (2018), “Operational risk management in a commercial banks”, “International journal of engineering and technology” №7(4.36).
4. Akbarov.M.A (2022), “Tijorat banklarida likvidlilik riskini boshqarishni takomillashtirish, “Экономикаисоциум” №10 (101) -1.
5. Abdullayeva. G. A. (2022), “Methods of assesmentand risk assessment of economic security of banks in Uzbekistan”, “Journal of Hunan University” Vol 19.

